

**MUSTAQILLIK DAVRIDA XORAZM VOHASIDA OLIB BORILGAN
TADQIQOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI**

Qodirov Mirzobek Ulug'bek o'g'li

Urganch Davlat Universiteti,

Ijtimoi-iqtisodiy fanlar fakulteti, 1-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14685151>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik davrida Xorazm vohasida olib borilgan tadqiqotlar haqida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Xorazm vohasidagi chet ellik olimlar bilan hamkorlikda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va ularning natijalari ko'rib chiqiladi. Maqolada Xorazm Arxeologiya-Etnografiya ekspeditsiyasining Xorazm vohasini o'rganilishidagi ahamiyati, mustaqillik davrida o'rganilgan qadimiy qal'alar haqida o'rganiladi.

Kalit so'zlar. Qadimgi Xorazm, Oqchaxon qal'a, Xorazm Arxeologiya-Etnografiya ekspeditsiyasi,

**ИССЛЕДОВАНИЯ, ПРОВЕДЕННЫЕ В ХОРЕЗМСКОМ ОАЗИСЕ В ПЕРИОД
НЕЗАВИСИМОСТИ, И ИХ ЗНАЧЕНИЕ**

Аннотация. В статье анализируются исследования, проведенные в Хорезмском оазисе в период независимости. В исследовании будут рассмотрены научные исследования, проведенные совместно с зарубежными учеными в Хорезмском оазисе, и их результаты. В статье рассматривается значение Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в изучении Хорезмского оазиса и древних крепостей, исследованных в период независимости.

Ключевые слова. Древний Хорезм, Крепость Акчахан, Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция.

**RESEARCH CONDUCTED IN THE KHOREZM OASIS DURING THE PERIOD OF
INDEPENDENCE AND THEIR SIGNIFICANCE**

Abstract. This article analyzes the research conducted in the Khorezm oasis during the period of independence. During the study, scientific research conducted in collaboration with foreign scientists in the Khorezm oasis and their results are reviewed. The article studies the importance of the Khorezm Archaeological Ethnographic Expedition in the study of the Khorezm oasis, the ancient fortresses studied during the period of independence.

Keywords. Ancient Khorezm, Akhchakhan Castle, Khorezm Archeological Ethnographic Expedition.

Kirish

Mustaqillik yillarida Xorazm hududida ko'plab arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Bu tadqiqotlarni tashkil etishda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Xorazm Ma'mun Akademiyasi va Urganch Davlat Universiteti professor olimlarining izlanishlari muhim o'rin egallaydi. Dastlab Xorazm vohasini o'rganishga bo'lgan qiziqishlar XX asrning 30-yillaridan boshlangan. Xorazm vohasida tizimli ekspeditsiyalar olib borish SSSR Fanlar Akademiyasi akademigi, arxeolog va etnograf olim S.P.Tolstov rahbarligidagi ekspeditsiya tomonidan amalga oshirilgan.

Qadimgi va o'rta asrlar davridagi Xorazm tarixi va madaniyatini o'rganishda S.P. Tolstov rahbarligidagi olimlar qariyb yarim asr davomida faoliyat olib borgan. Ekspeditsiya kashfiyotlari va tadqiqotlarining natijalari ko'p jildli «Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции», «Материалы Хорезмской экспедиции» nashrlarida hamda yuzlab ilmiy maqolalarda, alohida monografiyalar, to'plamlar va risolalarda yoritilgan.[1]

Xorazmvohasining boshlanish joyidagi eng qadimgi va juda muhim arxeologik yodgorliklardan biri- Hazorasp shahri harobalaridir. Bu ulkan antik shaharda faqat ayrimarxeologik qidirishlarga o'tkazilgan, shuning uchun ham hozirgi kunda bu shahar haqida ma'lumotlar kam. [2] Xorazm vohasidagi tadqiqotlar davomida qadimgi aholining turmush sharoitlari, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti haqida ko'plab ma'lumotlar aniqlanadi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-tahliliy va qiyosiy metodlarga asoslangan. Xorazm vohasining o'rganilishiga oid adabiyotlar, tadqiqot materiallari va ilmiy maqolalar, arxeologik hisobotlardan foydalanilgan.

Xorazm ekspeditsiyasining ko'p yillik tekshirishlariga yakun yasovchi S.P Tolstovning "Qadimgi Xorazm", "Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasi izidan" kabi kitoblari hamda ekspeditsiya hodimlarining bir necha ilmiy asarlari O'rta Osiyo tarixini o'rganishda muhim bir bosqich hisoblanadi.[1] G'.Xo'janiyozonving "Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari" kitobida ham Xorazm huduning o'rganilish bosqichlari batafsil yoritilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xorazm vohasida mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar natijasida ko'plab yutuqlarga erishildi. Avtstarliya, Germaniya, AQSH, Rossiya, Polsha, Italiya kabi rivojlangan davlatlar olimlari bilan hamkorlikda izlanishlar olib borildi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida qadimiy qal'alarning madaniy qatlamlarida chuqur o'rganish va qidirish ishlari o'tkazildi.

Dastlabki o'rganish ishlari Xorazmning qadimiy shaharlaridan biri Oqchaxonqal'ada olib borilgan. Oqshaxon qal'ada 1995 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida qadimgi Xorazm shaharlarini tadqiq qilishning so'nggi bosqichi to'g'ri keladi. Xorazm Ma'mun akademiyasi va Urganch Davlat universiteti ilmiy xodimlari shu yillarda Olmaotishkan, Dashqal'a 2, Hazorasp va boshqa shaharlarni tekshirdilar (Baratov, 2004; 2006; Baratov, Matrasulov, 2003; Matrasulov, Sobirov, 2002 va b.) [4] 2005-2006-yillarda olib borilgan ish natijalariga ko'ra, ko'cha bilan qal'aning g'arbiy devoir orasida shartli ravishda «Yuz ustunli zal» deb nomlangan obyekt borligi aniqlandi. Muqaddas shahrning qal'a devoridan 18 m masofada devor ko'tarilgan bo'lib uning uzunligi 100 metrga yaqin, deyish uchun asos bor. 100 x 18 metr o'lchamdagi ulkan xona ustida 3,1 x 3,6 m oralig'idagi ustunlarga tayangan yassi bostirma bo'lgan. Qal'a mustahkam qurilish uslubiga ega hisoblanib, Xorazmning qadimgi rivojlangan shaharlaridan biri hisoblanadi.

2003-yildan Arxeologiya instituti Janubiy Xorazm arxeologiya otryadi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Ma'mun akademiyasi kichik muntazam arxeologik tadqiqotlar olib boradi. Tadqiqotlar davomida Xorazm vohasi janubidagi nekropollar (Meshekli va Uch o'chaq) tekshiriladi. [4]

M.Mambetullayev, V.N.Yagodin, V.V.Luneva, O'.Abdullayevlarning maqolalari ham qadimgi va o'rta asrlar Xorazm shahar va qal'alariga bag'ishlanadi. Tarixiy rivoyatlar, urf-odatlar va marosimlarga oid masalalar S.X.Esberganova, H.Abdullayev, S.Ro'zimov, G.Eshchanova, A.A.Ashirov, Sh. Kamoliddin va boshqa olimlar tomonidan ko'rib chiqildi.[5]

Avstraliyaning Sidney Universiteti olimlari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti olimlari bilan hamkorlikda respublika hududida arxeologik izlanishlar o'tkazib kelmoqda.

2024-yilda Xorazm Ma'mun akademiyasi arxeolog olimlari B.P. Sadullayev rahbarligida S.U.Sobirov, Sh.B.Rahmonov, F.R. Matqurbonovlar ishtirokida Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumanida arxeologik dala qidiruv ishlari boshlangan. Tadqiqotlar Xorazm janubidagi chorvador qabilalarga mansub mozor-qo'rg'onlarda olib borilmoqda. Olimlar tomonidan 3,5 ming yillik Andronovo madaniyatiga oid mozor-qo'rg'onlarni ochildi va bu tipdagi mozorlar Xorazm tarixida kam uchraydi. Bu topilmalar hududimizda yashagan qadimgi xalqlarning diniy qarashlari va dafn tartiblariga oid muhim manbalardan hisoblanadi.

XULOSA

Qadimgi Xorazm hududi ming yillik tarixga ega bo'lib, bu yerda odamlar neolit davridan boshlab hayot kechirganlar. S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm Arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi hodimlari tomonidan Xorazm vohasi hududidan 200dan ortiq qal'alar o'rganilgan. Eramizdan avvalgi IV—I asrlar qadimgi Xorazmning gullab-yashnagan davri bo'lib, bu paytga oid yodgorliklar juda ham ko'p va xilma-xildir. Xorazmning antik davrdagi shaharlarining deyarli barchasi vohani dashtdagi qo'shni kabilalardan mudofaa qilish maqsadida qurilgan.[6] Xorazmning qadimgi davrda rivojlangan Tuproqqal'a, Oqchaxonqal'a, Kat qal'a, Ayozqal'a, Qo'yqirilgan qal'a, Guldursun qal'a, Qalajiq qal'a, Jildiqqal'a, Olmaotishgan, Guldursun kabi ko'plab qal'alari ekspeditsiyalar davomida o'rganilgan. A.Yakubovskiy, S.Bartold, Itina, Yagodin, A.Asqarov, Y.G'ulomov, T.Mirg'iyosov, G'.Xo'janioyozov va boshqa olimlar tomonidan Xorazm vohasi qadimgi qal'alari va aholi turmush tarzi, urf-odatlar va boshqaruvi to'g'risida izlanishlar olib borilgan.

Mustaqillikdan keyin yurtimiz tarixi va o'tmishini o'rganishga katta e'tibor qaratilishi natijasida tarix va arxeologiya sohasida katta yutuqlarga erishildi. 1997-yilda Xiva shahrining 2500 yillik yubileyi keng nishonlashi bunga bir misoldir. Ko'p asrlik tarixga ega Xorazm vohasining bebaho merosini o'rganish orqali qadimgi davr aholisining madaniyati, dini, boshqaruvi haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Zero, tarixiy xotirasiz kelajak yo'qdir.

REFERENCES

1. И.Жабборов. Кўҳна ҳаробалар сири. Ўзбекистон СССР Давалт нашриёти. Тошкент-1961
2. С.Р.Баратов. Новы данные по археологии южного Хорезма (статья). Академия Маъмуна, Институт археологии Академин наук Республики Узбекистана.(2013)
3. Хўжаниёзов, Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. Тошкент: Ўзбекистон.(2007).
4. Гуломов, Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи: қадимги замонлардан ҳозирги кунгача. Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти. (1957)
5. Abdrimov K. Qadimgi Xorazm ilmiy maktabining astroarxeologik mezonlari//IMKU. - Samarqand, 1999.
6. M.Allabergenov. Qadimiy mudofaa qo'rg'onlari. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent-2007